



## DARS JARAYONINI TASHKILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI.

**Yaxshiyev Dilxushbek**

Shahrisabz Davlat Pedagogika institutining  
pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14229313>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Dars jarayonini tashkillashtirish. Dars jarayonida Axborot texnologiyalarning o'rni va afzalliklari haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** Dars, Axborot texnologiyalar, Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari, o'qituvchining kompetensiyasi, Axborot texnologiyalarda qoidalar va dars jarayonida o'rni.

Hozirgi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy ta'limda o'quvchirni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Dars. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bog'lanishdir. Dars – bu bilimlarlar aksiomalari. Dars tufayli o'qituvchi bilimni o'quvchilarga yetkazadi. Hozirgi XXI asr, Axborot Texnologiyalar asriga bir nazar tashlasak. Hozirgi zamon talabisiz, dars jarayoni tashkillashtirish qiyin.

Eng avval Kompyuter nima ekanligi, uni kim yaratganini bilib olsak.

Tarixda birinchi haqiqiy kompyuter ixtirochisi bu Charlz Bebbij bo'lgan. U yaratgan kashfiyot butun dunyoni lol qoldirgan. Charlz Bebbij — ingliz matematigi, birinchi avtomatik raqamli kompyuter ixtirochisi. U zamonaviy ingliz pochta tizimini yaratib, dastlabki ishonchli aktuar jadvallar ishlab chiqqan, turli xil spidometrlar va temir yo'llarni tozalagich qurilmasini ixtiro qilgan.

Zamonaviy texnologiyalar orqali dars ham samarali, ham tushunarli, oson va ma'lumotlarni eslab qolish qiyin emas. O'quvchi monitorda ko'rsatilayotgan ma'lumotlar bilan tanishishganda, eslab qolishadi. Ming eshitgandan, bir ko'rgan





afzaldir. Shunday ekan keling darslarda Axborot Kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuritsak. Afzalliklari:

Birinchidan. O'qituvchining asab buzilishini kamaytiradi va oldini oladi. Bilamizki boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tez asabiylashdi. Bunaqa holatlar yillar o'tgan sayin kuchayaveradi. Ba'zi paytlarda qattiq gapirib, o'quvchilarni qo'rqitib qo'yishadi. Agar AKT dan foydalanilsa stressning oldini olishadi. Agar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari AKT foydalanishsa chiroyli va aniq dars o'ta olishadi. Dars o'rtasida qisqa videorolik ( tarbiyaga doir, ta'limga doir, ijtimoiy hayotga doir videoroliklar) yoki metodlarni monitorida ko'rsata oladi. Bularda tashqari qisqa besh minutlik musiqiy videoroliklar, qisqa multfilmlar ( o'quvchilarga hordiq berish maqsadida) qo'yib berish kerak. Ular yosh bo'lishadi. Tez charchab qolishadi. Ularga bular foydalidir.

Dars mavzusi, o'tgan mavzu, uyga vazifalari, ko'rgazma qurollarni namoyish qila olish AKT ning ustunlik tomonidir. Siz AKT qancha ko'p foydalana olsangiz, shuncha yangidan-yangi g'oyalar kelishni boshlaydi. Yangi idea, yangi metod yarata olasiz. Darsingizga juda ko'p yangilik olib kira olasiz. O'quvchilaringiz ham, boshqa sinflar bilan raqobatlashganda, sizni uyaltirib qo'ymaydi.

Ikkinchidan: Vaqt tejash. O'qituvchilar ba'zi darslarda qiyinchilikka duch kelishmoqda . Masalan: matematika darslarida. Ularga qisqa masala tuzish, tenglama, tengsizlik kabi tushunchalarni videoroliklar orqali tushuntirish, hamda, ular haqida misollarni yechishni, monitorlar ko'rsatish sizga qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolaversa sinfdagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi. Undan tashqari hamma o'quvchilarning nigohini bir nuqtaga qarata olasiz. Ona-tili darslarida esa, matn, diktant, mashq kabi tushunchalarni tushuntirish oson bo'ladi. O'quvchilarga ko'p yozdirishning ham hojati qolmaydi. Kerakli joyinigina yozishadi xolos.

O'qish darslarida esa, ertak, hikoya, masal kabi tushunchalarni o'rgatish oson bo'ladi. Qolaversa ularni kreativlikka ham undaydi. Ularga 3-4-sinflarda ertak, hikoya, masallardagi obrazlarni sahna ko'rinishda qilib berishni ham so'rab boring. Birinchi ertak, masal, hikoya janrlaridagi obrazlarni yaxshilab tushuntirib bering. O'quvchilar sahnalashtirgan obrazlarni yozib oling. Ularning shu sohaga qiziqishini bilib olasiz.

Uchinchidan: Bolalar zamon bilan hamnafas bo'la oladi. Ular hozirgi zamonda telefondan foydalanishni bilishadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga elementar (sodda) tarzda Informatika fani o'qitilmoqda. Ularga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda, telefon va uy elektr





jihozlaridan ham foydalanish ham o'rgatilmoqda. Bu esa har bir bolaning, AKT dan to'g'ri va aniq foydalanishga olib keladi. Zamonga boqadi. Texnologiyalardan foydalanishni bilishadi. Imkonini topsalar, bolalariga kompyuter olib berishlari kerak.

To'rtinchidan: Ota-onalar bilan o'qiruvchi hamkorligining mustahkamlanganligi. Ota-onalar bolalarining ertangi hayoti uchun hamma narsaga tayyor shaxslardir. Ular hozirgi zamon talablarini televizordan, radiodan yoki boshqa joylardan eshitishgan va bolalariga zamon talabiga mos bo'lishni o'rgatishadi. Bu esa bolaning ertangi hayotining belgilanib borishidan darak beradi. O'zbekiston respublikasi uchun esa yosh bolalarga AKT bilan dars o'tish, boshqa davlatlar bilan raqobatda ekanidan darak beradi.

Kamchiliklari:

Birinchidan: ba'zi o'qituvchilari Axborot texnologiyalar, kompyuterlardan foydalanishni bilishmaydi. Chunki, shu vaqtgacha biron kishi kompyuter kursiga boring demagan. Balki, vaqti bo'lmagandir, balki sharoiti yo'qdir. Ammo biror inson bir narsaga qattiq bog'lansa, shu narsaga astoydil harakat qiladi.

Ikkinchidan. Dars tashkil qilishdagi uzilishlar. Ba'zida elektr energiyasining bo'lmasligi, AKT bilan dars o'tishda uzilishlarni olib kelishi mumkin.

AKT ni boshqa fanlarda qo'llash.


AKT ni asosan matematika, chizmachilik, biologiya, geografiya, kimyo, fizika kabi darslarda ko'p qo'llaymiz. Biz doskada kimyoviy elementlar, formulalar, masalalarni, chizmalarni, figuralarni ko'p yozamiz. Bu esa ko'p vaqtni oladi. 45 daqiqa vaqtimiz ba'zan chizma chizish bilan o'tib ketadi. O'quvchilar katta sinf bo'lsa ham zerikib qoladi. Ularga daftarga chizishga undaymiz. To'g'ri doskada foydalanish kerak, faqat misol ishlash uchun, mavzu yozish uchun foydalansak bo'ladi. Bir mavzuga ko'p ma'lumotlar kitoblarda ham berilmaydi. Ammo AKT foydalanib topsa bo'ladi. Monitorda biz tayyor chizilgan shakllar, misollarni, masalalarni, kimyoviy elementlarni tasvirlaymiz.

AKT ning qoidalar.

AKT ning ham bir qancha qoidalari bor:

Birinchidan. Ma'lumot berilgan mavzuga mos tushishi. Har bir o'qituvchi bilishi zarur bo'lgan qoida, siz o'tayotgan darsga, berayotgan ma'lumotlarning mos tushishi. Agar biz bergan ma'lumotga, dars mavzusi mos tushmasa, o'qituvchining pedagogik mahorati pastligidan, bundan tashqar Axborot Kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olmasligidan darak beradi.

Ikkinchidan. Berilgan ma'lumotlar o'quvchining yoshiga mos bo'lishi. Biz boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bo'lib katta sinflarning ma'lumotlarini,





misollarini, masalalarini, tenglamalari kabi matematika tushunchalarini televizor monitoriga chiqarib qo'ysak ular tushunmaydi. Ularga boshlang'ichga mos ma'lumotlar bilan tanishtirilishi kerak.

Uchinchi: AKT. Kompyuterdan to'g'ri foydalanishni o'quvchilarga o'rgatish. O'quvchilarning hammasi ham kompyuterni ishlatishni bilishmaydi. Ularga eng avvalo darsda qanday o'tirish odobini o'rgatgandek, kompyuterda o'tirish odobini o'rgatishimiz kerak. Keyin klaviatura bilan ishlashni o'rgatiladi.

To'rtinchi: o'quvchilarga to'g'ri ma'lumotlarni tanlashni o'rgatish. O'quvchilar bu bosqichda internetdan to'g'ri ma'lumotlarni topish va tanlashni o'rganishadi. Bilmasdan har qanday Diniy ekstremizm yoki boshqa bir behayo saytlarga kirib, ongini bilmasdan zaharlab qo'yishlari mumkin.

Beshinchi: O'quvchilarga o'rgatgan narsalaringizni so'rash. Biz o'quvchilarga har doim ma'lumot bersak-da, uni ololmasak, o'quvchilarning past o'zlashtirganidan darak beradi. Agar biz bergan bilimni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, ular biz so'ragan narsalarga tutilmay javob berishadi. Hattoki AKT darslarida ham bergan bilimlaringizni so'rab boring.

Xulosa: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarsiz biz yashayotgan olam, ma'nosizdek go'yo. Qayerga qaramay yosh bolalarning qo'lida telefon. Hech kim birovning bolasidan telefonni tortib ololmaydi, ammo bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'quvchilariga telefondan to'g'ri foydalanishda ozgina bo'lsa ham, hissasini qo'shsa, bolalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maqola: Adiba Shamshidin qizi Isoqova
2. Termiz davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti talabasi.
3. Wikipedia.ocontent://org.aka.messenger.provider/media/Telegram/Telegram%20Files/Dars\_jarayonini\_tashkillashtirishda\_axborot\_tehnologiyalarining o'rni.
4. Akt sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar. <https://daryo.uz/>

